



XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 14-may

VII-11-89-5-78-K/25

Zarafshon shahar

Zarafshon shahar mahalliy budjetining 2025-yil I chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-,24-moddalari, Budget kodeksining 126-moddasi, 2025-yil I chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan shakllangan qo'shimcha manbalardan foydalanish maqsadida xalq deputatlari shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari N.Xolovning mahalliy budjetining I chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan mablag' ajratish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy budjetining I chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan ilovaga muvofiq mablag' ajratilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasining 2025-yil 24-apreldagi 57-40/828-sonli xatini ilovasiga asosan 2025-yil I chorak yakuni bilan mahalliy budjetga soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yil boshiga nisbatan ortiqcha to'lov oshib ketmaganligi inobatga olinsin.

4. Shahar budjetining qo'shimcha manbalaridan mablag' oluvchilarning rahbar va mas'ul xodimlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo'yilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o'rinbosari A.Shoxmirzayev va xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi R. Nurnazarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXMANOV
NAZIRBEK
ISRAILOVICH

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2025-yil 14-maydagi
VII-11-89-5-78-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Muassasa nomi	Maqsadi	Daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi (mln so'mda)	Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushum (mln so'mda)
1.	Zarafshon shahar hokimligi	Jamoatchilik fikri asosida "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasiga 30% mablag'ni yo'naltirish uchun	436,0	
		"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi xarajatlariga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qaroriga asosan)	73,0	
		"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi xarajatlariga (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-son qaroriga asosan)	218,0	
		O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimida Bolalarni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi xarajatlariga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi PQ-427-son qaroriga asosan)	10,0	
		Qo'riqlash xizmati xarajatlariga	86,3	
		Yoqilg'i (benzin va gaz) sotib olish hamda xizmat avtomobillarini ta'mirlash xarajatlarigan	30,0	
		Zarafshon shahri mahallalarida faoliyat yuritayotgan "Keksalar maslahati" guruhlarini rahbarlarini rag'batlantirish xarajatlariga	11,3	
		Moddiy texnik bazasini mustahkamlash (kompyuter va printer sotib olish) xarajatlariga	12,0	
		Xizmat safari xarajatlari	15,0	
		Hokim o'rinbosarlariga KPI ko'rsatkichlari uchun rag'batlantirish xarajatlariga	10,8	
		Shahar hokimligining kommunal (elektr energiya, tabiiy gaz, issiq suv va issiqlik energiyasi, sovuq suv va oqova) to'lovlar uchun	72,6	40,990
2.	Zarafshon shahar hokimligi	Matbuot kotibi moddiy texnika bazasini shakllantirish uchun audio-video uskunalari (kamera, fotoapparat va kerakli jihozlar) sotib olish xarajatlariga	45,0	
		Qurilish mollari hamda jihoz va xo'jalik mollari sotib olish xarajatlariga	94,0	
		Shahar hokimligi balansidagi Led ekranlarni ta'mirlash hamda kerakli jihozlar sotib olish xarajatlariga	26,0	
3.	Zarafshon shahar obodonlashtirish boshqarmasi	Yoqilg'i (benzin,gaz va dizel) sotib olish xarajatlariga		30,0
		Qurilish mollari hamda jihoz va xo'jalik mollari sotib olish xarajatlariga		30,0
		Obodonlashtirish boshqarmasiga ko'cha yoritkichlari, led chiroqlari hamda kerakli jihozlar sotib olish xarajatlari uchun		30,0

4.	Zarafshon shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli umumta'lim maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash hamda jihozlash xarajatlari uchun		170,0
5.	Zarafshon shahar yoshlar bo'limi	HRM elektron tizimidan foydalanish xarajatlari uchun		10,0
Jami			1140,0	310,990
Hammasi			1451,0	